

FAVFORALAR - SHAHRIMIZ KO'RKI

Poytaxtimizda o'tkazilgan «Favvoralar sayli»dan olgan taassuroilarim menga hamon ko'tarinki kayfiyat va zavq ulashmoqda. Bayram kuni oilamiz bilan Mustaqillik maydonidagi bir-biridan chiroyli favvoralarni tomosha qilib, shunday tinch va osuda yurt farzandi ekanimdan sevindim. Ayniqsa, favvoraning turli ranglar jilosida tovlanishi biz - bolalarning hayratimizni oshirdi.

Onam ushbu sayl shahrimizda ilk bor o'tkazilgani va bu yoshlar ommaviy-madaniy tadbiri ekani haqida so'zlab berdilar. Men esa yurtimizda bayramlar ko'pligidan, shahrimning ko'chalarini favvoralar bezab, bizga quvonch baxsh etayotganidan baxtiyorman.

Dilbar HAMRAYEVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 105-umumta'lim maktabining
4-sinf o'quvchisi, shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:19 (66976)

2014-yil

12-may



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

«INGLIZ TILI BILIMDONLARI»

ko'rik-tanlovining respublika
bosqichi ko'lik o'tdi

5-BET

DUNYO BOLALARI BAYRAMI

2-BET



DUNYO BOLALARI BAYRAMI

O'tgan dam olish kuni men uchun maroqli o'tdi. Bir kunda yer yuzini deyarli aylanib chiqdim, desam ishonaverim. Zukko o'quvchilar vaqtingizni oynayi jahon qarshisida o'tkazgan bo'lsangiz kerak, degan fikrga kelgan bo'lishlari mumkin. Ammo unday emas. Uchar gilam topib oldingizmi, deb miyig'ida kulayotgan yosh do'stim ham xato qiladi.

Bu voqea kutilmaganda ro'y berdi. Bunda esa menga sizning tengdoshlaringiz yaqindan ko'maklashishdi. Qanday qilib, deysizmi? Unday bo'lsa, quyidagi maqolamizni diqqat bilan o'qib chiqing.

Poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek nomli xalqaro maktabda yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan. Har yili mazkur o'quv dargohida «May festivali» bayram tadbiri o'tkaziladi.



Bu galgi tadbir ham har bir o'quvchi mehmonlarni o'z mamlakatining urf-odatlari, tarixi bilan yaqindan tanishtirib, milliy taomlari bilan siylashga harakat qildi.

Ayniqsa, maktabning 8-sinf o'quvchisi ozarbayjonlik Rubaba Yusifova bizning nazarimizda festival malikasiga aylangandek edi, go'yo. Bu mamlakat hunarmandlari tomonidan yaratilgan cholg'u asboblari, turli ko'zalar va milliy

liboslar haqida batafsil ma'lumot bergan Rubabaga rosa havasimiz keldi. Shuningdek, italiyalik hamda xitoylik tengdoshlarinigizning iqtidori, ularning o'z mamlakatlari haqidagi qiziq-qiziq ma'lumotlari ham bizni hayratga soldi. Bolalarning quvnoq kulgisi yangragan shodiyona maktab hovlisida uzoq davom etdi.

Yusuf ABDULLAYEV.
Muallif olgan suratlar



YOSHLAR TARBIIYASIDA KINONING O'RNI

Avval xabar berganimizdek, «O'zbekkino» Milliy agentligi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida 3-6-may kunlari Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan «Kamolot» yoshlar oromgohida «Kino va yoshlar» Respublika forumi bo'lib o'tdi. Unda tajribali kinorejissorlar, yozuvchilar, ssenariy mualliflari, aktyorlar, «Kamolot» YOJH yetakchilari va faol talabalar qatnashdi.



Tadbirda so'zga chiqqan mutaxassislar bugungi kunda yoshlarning qalbi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga bevosita ta'sir o'tkazadigan kinofilmlarni suratga olish, soha faoliyatini xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada rivojlantirish fursati yetganini ta'kidlashdi. Shuningdek, bugungi o'zbek filmlarida yoshlar hayotining haqiqiy manzarasi, ularning o'y-fikrlari, orzu-istaklari, intilishlari, tashabbuslari to'liq ochib berilmayotgani alohida tilga olindi.

Forum davomida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi munosabati bilan tayyorlangan «Bu yorug' dunyoda o'chmas chirog'im» hujjatli filmi, «Ko'rgim keladi», «Odnoklassniki.ru» badiiy filmlari ishtirokchilari e'tiboriga havola qilindi. Namoyishdan so'ng mutaxassislar va yoshlar ishtirokida filmlar muhokamasi ham o'tkazildi.

Durdona TO'LAGANOVA, rejissor:

– Nazarimda, ishini bolalar filmlarini rivojlantirishdan boshlash lozim. Negaki, bugun aynan kichkintoylar uchun mo'ljallangan filmlarni suratga olishda ancha oqsaypmiz. Agar kino tarbiya vositasi ekanligini inobatga olsak, bolalar uchun filmlar yaratish orqali jamiyat taraqqiyotiga, yoshlarning ziyoli, iymon-e'tiqodli shaxs bo'lib, kamol topishiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Shuhrat IKROMOV, talaba:

– Kinolarni muhokama qilishdan avval, yaxshi

asar haqida gapirish zarur. Menimcha, mazmunan puxta kinossenariylar yaratish, yaxshi asarlar uchun tanlov e'lon qilish vaqti allaqachon keldi. Qanchadan qancha mumtoz va tarixiy asarlarimiz bor, nega ularni ekranga olib chiqish mumkin emas?

Kamola SOBITOVA, tomoshabin-o'quvchi:

– Bugungi kunda bolalar va o'smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish juda yuqori. Men ham darsdan bo'sh vaqtimda internet tarmog'i orqali do'stlarim bilan mulqot qilib turaman, o'zim uchun kerakli ma'lumotlarni izlayman. Ammo bu kabi mashg'ulotlarga mukkasidan ketish, salbiy oqibatlarga olib kelishini o'ylab ko'rmagan ekanman. «Odnoklassniki.ru» filmi tomosha qilgach, internet yovuz niyatli insonlar qo'lida xavfli qurolga aylanishi mumkinligini tushunib yetdim.

Qizg'in bahs-munozara, yoshlarga xos shijoat va ko'tarinki ruhda o'tgan mazkur kinoforum, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha oldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, mutaxassis va ijodkorlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar, aniq takliflar kelgusida yaratilajak tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy ruhdagi filmlar uchun asos bo'lib xizmat qilsa, ajab emas.

Mahmudjon AZIMOV.

Suratlar muallifi: Muzaffar AHMEDOV



ISTIQBOLLI HAMKORLIK



«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, mana bir necha yildirki, Koreya Respublikasining qator tashkilotlari bilan hamkorlikda ko'plab xayriy ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Yaqinda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasida koreyalik shifokorlar respublikamizdagi tug'ma yurak nuqsoni bor bemor bolalarni umumiy chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Ko'rik natijalariga ko'ra, ayrim bemor bolalar yurtimiz va Koreya Respublikasining nufuzli klinikalarida davolanadigan bo'ldilar.

MURUVVAT YUKLARI TARQATILDI

Joriy yil davomida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondiga hamkor tashkilotlar tomonidan dori-darmon, tibbiyot anjomlari, multivitaminlar, nogironlik aravachalari, vitaminlashtirilgan quritilgan sabzavot sho'rvasi ko'rinishidagi muruvvat yordamlari keltirildi va fondning hududiy filiallari, joylardagi sog'liqni saqlash boshqarmalari orqali respublikamizdagi tibbiy va maxsus bolalar muassasalari, shuningdek, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga topshirildi.

Kuni kecha O'zbekiston Badiiy akademiyasi Toshkent fotosuratlar uyida Toshkent shahri hamda viloyatda istiqomat qiluvchi 14 nafar imkoniyati cheklangan bolalar uchun xayriya tadbiri o'tkazildi. Unda AQSHning «Ameri Kers» xalqaro tashkiloti tomonidan yuborilgan maxsus nogironlik aravachalari va uning ehtiyot qismlari o'z egalariга topshirildi.

O'z muxbirimiz

INSON XOTIRASI ABADIY

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan yurtimizdagi kasb-hunar kollejlarda, umumta'lim maktablarida qator tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri dugonam o'qiydigan ta'lim maskanida ham bo'lib o'tdi. U meni shu kechaga taklif qildi. Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 106-umumta'lim maktabiga borganimda, faollar zali o'quvchilar va mehmonlar bilan to'lgan ekan. «Meni

eslagin» deb nomlangan adabiy kecha o'z davrining taniqli shoiri Xayriddin Saloh xotirasiga bag'ishlanib, tengdoshlarim shoirim hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berishdi. Ayniqsa, raqqosa qizlar tomonidan shoir yozgan she'r bilan kuylanadigan:

«Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas...»

nomli qo'shiqqa sahnalashtirilgan raqs barchada katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, Xayriddin Saloh qalamiga mansub doston asosidagi sahna ko'rinishi, tadbir ishtirokchilarining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Kecha so'nggida shoirning yaqinlari maktab ma'muriyatiga, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Nargiza opa Yusupovaga hamda o'quvchilarga alohida minnatdorlik bildirishdi. Men bu maktabdan olam-olam taassurotlar bilan qaytdim.

Odina SAHOBIDDIN qizi, Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



ZUHRA olgan surat

Men she'r yozishga juda qiziqaman. Mashqlarimni ustozlarimga o'qib bersam, «She'rlaring yaxshi, yozavers», deyishadi. Ammo men ijod qilishning qonun-qoidalarini o'rgangim keladi.

INTIQIB KUTAMAN

Sevimli nashrim «Tong yulduzi»ning har bir sonini orziqib kutaman. Ko'chamizdan pochta amaki o'tib qolsa, doim q o' l i g a q a r a y m a n. Chunki u menga gazeta, jurnallar olib keladi-da.

Aziz tengdoshlar, men «Tong yulduzi» gazetasi har bir sonini ana shunday intiqlik bilan kutaman. Siz-chi?



Muxlisa TO'XTAMURODOVA, Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

ISHONCH MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Tahririyatimizga o'quvchilardan o'z orzu-istaklari bitilgan maktublar ko'plab keladi. Ayniqsa, jurnalist bo'lish orzusidagi o'g'il-qizlarning ko'pligi bizni behad quvontiradi.

Kuni kecha «Poytaxt» biznes markazi anjumanlar zalida jurnalistlar uchun tadbir tashkil etildi.

«Jurnalistning kasbiy etikasi va mas'uliyatini oshirish masalalari» mavzusidagi mazkur tadbir O'zbekiston Mustaqil bosma OAV va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro markazi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi, YUNESKO, Jahon bankining yurtimizdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda o'tkazildi.



professional kodeksi loyihasining taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

O'z muxbirimiz, H. HAMIDULLAYEV olgan surat

Anjuman davomida so'zga chiqqan xorijlik mehmonlar mamlakatimizda OAV sohasida olib borilayotgan amaliy ishlar samarasini alohida e'tirof etdilar. Shuningdek, davra suhbatida jurnalistlarning kasbiy faoliyati davrida odob-axloq me'yorlariga rioya etish bilan bog'liq masalalar keng muhokama qilindi.

Tadbirda O'zbekiston jurnalistlarining odob-axloq me'yorlari

TAHRIRIYATDAN: Aziz o'quvchilar! Tahririyatimizga kelgan har bir xat ro'yxatga olinib, bo'limlarga topshiriladi. Ammo dalillar noaniq bo'lgan yoki aniq bir voqelik aks ettirilmagan maktublar gazetada chop etilmaydi. Shuning uchun yozgan xatlaringizda she'r, hikoya, ertaklardan tashqari, maktabingizda o'tkazilayotgan tadbirlar, siz yashayotgan hududda yoshlarning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida yozib yuboring. Yozganlaringizni avval ustozlaringizga ko'rsatib olishni unutmang.

BILIMDONLAR KO'PAYSIN



Yaqinda maktabimizda «Ochiq eshiklar kuni» bo'lib o'tdi. Tadbirda ustozlarimiz ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda ochiq darslar tashkil etdilar.

Ona tili va adabiyoti fanidan bo'lib o'tgan ochiq darsda ustozimiz Nasiba opa Mirsoatova o'qigan badiiy kitoblarimiz yuzasidan savol-javob o'tkazdilar. Buni qarangi, sinfdoshlarimizning deyarli barchasi kitobxon ekan. Ammo ustozimiz ham bo'sh kelmadilar, bizga adib Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» asari haqida hikoya qilib berdilar. O'qituvchimizning bu asarni sodda va ravon tilda tushuntirib berishi kitobga bo'lgan mehrimizni yanada oshirdi.

Tadbir yakunida tuman maktablaridan kelgan murabbiylar ochiq darslar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Diyora ABDULLAJONOVA, poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 214-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

IJODIY PARVOZ TILAYMIZ

Bugun yurtimizda iste'dodli yoshlarga ko'plab imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, san'at sohasida izlanayotgan o'quvchilarga qaratilayotgan e'tiborga havas qilsak, arziydi. Bunday g'amxo'rliklarga javoban o'z iste'dodini namoyon etishga intilayotgan o'quvchilar ham talaygina.

Sirdaryolik tengdoshingiz Kamola Abdullayeva Guliston shahridagi 2-bolalar musiqa va san'at maktabining 4-sinfida tahsil oladi. U bolaligidanoq rasm chizishga juda qiziqadi. Hozirda bu iqtidorli qiz ustoz Nabijon Jumaboyevdan tasviriy san'atga doir bilimlarni qunt bilan o'rganmoqda. Biz yosh rassomga yuksak marralarni zabt etishiga tilakdoshmiz.

Sunnatilla USANBOYEV, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi





KITOBXON OILA ANIQLANDI

Ma'naviyat va adabiyot tushunchalari o'zaro egizak. Ular bir-birini to'ldiradi, yuksaltiradi. Inson qancha ko'p kitob o'qisa, fikrlash qobiliyati kengayib, olamga teran ko'z bilan qarashni o'rganadi.

Kuni kecha Respublika bolalar kutubxonasida «Kitobxon oila» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Tadbir yosh avlod o'rtasida kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, iqtidorli, kitobsevar o'quvchi-yoshlar ijodini rag'batlantirish, shuningdek, oilaviy kitobxonlikni targ'ib etish maqsadida tashkil etildi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan jami 14 ta kitobxon oila belgilangan shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi.



etgan barcha oilalar a'zolariga berildi. Ular «Eng yosh kitobxon», «Eng notiq ishtirokchi», «Eng faol kitobxon oila a'zolari», «Eng zukko kitobxon», «Eng intiluvchan kitobxon», «Eng ifodali o'quvchi kitobxon», «Eng ijodkor o'quvchi» nominatsiyalarida bo'yicha diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishdi.

Dilorom HOTAMOVA

tanlov qatnashchilari ushbu qurilmani ishga tushirish, «Microsoft Word», «Excel», «PowerPoint» kabi dasturlardan oqilona foydalana olishni test savollari orqali namoyish qildilar.

Uchinchi shartda qatnashchilar bahr-u bayt aytish bo'yicha o'zaro musobaqalashishdi. Ayniqsa, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan o'quvchilarning ushbu shart bo'yicha chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot uyg'otdi.

Tadbir yakunida Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Mashhura Abdurashidova va uning oila a'zolari mutlaq g'olib sifatida oliy o'ringa loyiq topildi. 1-o'ringa Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Gulnoza Safayeva va Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 42-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Fotima Rashidova oilasi sazovor bo'lishdi. Shuningdek, 2-o'rin ham ikki oila — Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahridan kelgan 33-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Erbolat Bayrambayev va poytaxtning Hamza tumanidagi 69-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shahlo Xursandboyeva oilalariga nasib etdi.

Uchinchi o'rin hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra, ko'rik-tanlovda faol ishtirok



Z. NISHONOVA o'lgan surat

Aziz o'quvchilar, bugun orangizda bilim olish, hunar o'rganish uchun intilagotganlar ko'pligiga ishonehimiz komil. Biz sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingiz juda tirishqoq qiz ekan. Tahririyatimizda mehmon bo'lgan bu qizaloq bilan gaqindan tanishib maqsadida uni suhbatga tortdik:

TIRISHQOQ QIZ SHAHZODA

— Men Shahzoda Imomova poytaxtimizdagi 299-umumta'lim maktabining 4-«B» sinfidagi o'qiyman. Sinf rahbarimiz Manzura opa Alimxo'jayeva bizga o'qish, matematika va ona tili darslaridan saboq beradilar. Ingliz-tili faniga juda qiziqaman. Maktabimizda darsdan keyin to'garaklar tashkil etilgan. «Qiz bola hunarli bo'lishi kerak», deyдилar oyijonim. Shuning uchun ham darsdan bo'sh vaqtimda munchoqlar bilan bezaklar tikaman, o'zimga, dugonalarimga chiroyli buyumlar to'qiyman. Bu hunarni mehnat fani ustozimiz Gavhar opadan o'rganganman. Bundan tashqari, rasm chizishga juda qiziqaman. Tasviriy san'atdan saboq beruvchi ustozimiz Feruza opa Usmonovadan ranglarni to'g'ri tanlashni, natyurmortlar, manzaralar rasmni chizishni puxta o'rganyapman. Kelajakda liboslar bo'yicha dizayner bo'lish niyatidaman.



Suhbat davomida Shahzodaning she'r yozishga ham qiziqishini bilib oldik. — Hozircha yozgan she'rlarimdan ko'nglim biroz to'lmayapti. Agar tengdoshlarim singari ijod qilishni o'rgansam, tahririyatga yana albatta, kelaman, — deydi Shahzoda.

Tengdoshingizning ertangi kundan umidi katta. Orzulariga yetishish uchun esa u bugundanoq zamin tayyorlayapti. Siz-chi, aziz o'quvchilar, kelajakda kim bo'lishni niyat qilasiz? Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ulsiz? Shu haqda bizga yozib yuboring.



Ozoda TURSUNBOYEVA

MISLI OFTOB

Marg'ilon shahridagi 8-umumta'lim maktabida axborot-resurs markazi xodimlari tashabbusi bilan «Kitobim — oftohim» mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



O'quvchilar tadbirga devoriy gazeta, buklet, albomlar tayyorlashdi, she'rlar yod olib, ertak va hikoyalar o'qib berishdi. Shuningdek, boshlang'ich sinflar o'rtasida kitob va kitobxonlik haqida yozma ish, yuqori sinf o'quvchilari orasida «Kim ko'p she'r biladi?» tanlovi tashkil etildi. Tadbir yakunida eng zukko va bilimdon o'quvchilarga faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari topshirildi. **Muhammadjon MAHMUDOV, Farg'ona viloyati**

Kuni kecha Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida «Ingiliz tili bilimdonlari» intellektual musobaqasining respublika bosqichi o'tkazildi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlardan kelgan eng sara bilimdonlar g'oliblik uchun o'zaro bellashdilar.

«INGLIZ TILI BILIMDONLARI»

ko'rik-tanloving respublika bosqichi bo'lib o'tdi

Ushbu ko'rik-tanlov ilk bor o'tkazilganiga qaramay, har bir hududdan saralab olingan besh nafar ingliz tili

bilimdonlarining bellashuvi murosasizligi bilan kishiga zavq ulashdi. Birinchi shart bo'yicha 5-6-sinf o'quvchilari test savollariga javob berishgan bo'lsa, 7-9-sinf o'quvchilari tanlangan mavzu bo'yicha ijodiy yozma ish topshirishdi. Og'zaki savol-javob shartida 5-sinf o'quvchilari geografiyaga oid bilimlarini ingliz tilida ifodalashdi, 6-sinf o'quvchilari muayyan rasmning mazmunini chet tilida so'zlab berishdi. 7-sinf o'quvchilari tarixga doir bilimlarini, 8-sinf o'quvchilari ingliz tilidagi audiomatni tinglab, tushunish va gapirish mahoratini namoyon etdilar. 9-sinf o'quvchilari esa videotasvirni diqqat bilan kuzatib, savollarga javob berishdi.

So'nggi shart barcha o'quvchilar uchun

yanada qiziqarli o'tdi. Ingliz tilidagi sahna ko'rinishida jamoaviy uyushqoqlik, o'zaro tushunish, yaxshi so'zlasha olish bilan birga aktyorlik mahorati ham talab etildi.

Yakunda Toshkent shahri jamoasi birinchi, farg'onalik o'quvchilar ikkinchi, Buxoro viloyati jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Qolgan viloyat o'quvchilari ham maxsus diplom va sovg'alar bilan rag'batlantirildi.

-Tanlovda ishtirok etib, ko'plab do'stlar orttirdim. Ular bilan tahsil olayotgan maktablari, yaratilgan shart-sharoitlar haqida ingliz tilida suhbatlashdik, - deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Zilola Hoshimova.

Mazkur musobaqada ishtirok etgan har bir o'quvchini g'olib deb atash mumkin. Chunki ingliz tilida fikrlash, so'zlash, o'qish har bir o'g'il-qizning baxtidir.



Let's check your knowledge (Bilimingizni sinab ko'ring)

Aziz o'quvchilar, gazetamizning o'tgan sonlarida biz sizlar bilan ranglar, maktab formasi, oila a'zolari, mevalar, tana a'zolari, raqamlarni o'rgangan edik. Keling, ularni yana bir bor esga olamiz. Quyidagi so'zlar qaysi guruhga taalluqli ekanligini toping:
Red, dress, nephew, finger, cherry, eleven, white, shirt, apple, daughter, head, apricot, nine, twenty, pomegranate, shoes, skirt, parents, brown, arm, yellow.

Colours



Family members



School uniform



Fruits



Body



Numbers



CROSSWORD

1											XOKKEY
2											SAKKIZ 8
3											DARS
4											KATTA
5											IDORA
6											ERTA
7											TABIAT
8											YASHIL
9											SEVIMLI
10											OROL
11											SOYA

Husan XOLBOYEV,
Jizzax viloyati, Zomin tumani Qishloq xo'jaligi va maishiy xizmat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

HUR DIYOR BOG'-U BO'STON

Musaffodir osmoning,
Pokizadir yimoning.
Xalqing halol, mehnatkash,
Ochiqdir dasturxonang.

Suving zilol, shifobaxsh,
Unumdordir yerlaring.
Tabiatning betakror,
Yashnar dala, qirlaring.

Topolmasman shundayin,
Hur diyor bog'-u bo'ston.
Sen mening jannatimsan,
Ona yurt – O'zbekiston!

*Gulzira NE'MATOVA,
Navoiy viloyati, Karmana
tumanidagi 14-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi*



VATANIM

Mustaqillik to'yining muborak bo'lsin,
Tinchlik so'zi doim hamrohing bo'lsin.
Bog'laringda gullar gurkirab o'ssin,
Buyuk va muqaddas, aziz Vatanim!

Navoiy, Boburlar sening farzanding,
Bayrog'ing ko'tarar asl dilbanding.
Bilaman, azizdir har bir yaprog'ing,
Buyuk va muqaddas, aziz Vatanim!

Seni asrab-avaylash bizning burchimiz,
Munosib farzand bo'lish asl ahdimiz.
Kelajakka qo'ygan dadil shahdimiz,
Buyuk va muqaddas, aziz Vatanim!

*Diloromxon NURIDDINOVA,
Chust Milliy hunarmandchilik va
tadbirkorlik kasb-hunar kolleji
o'quvchisi*



ORZULAR QANOTIDA

Dilda orzular bisyor,
Hur va ozod diyorda.
Orzular qanotida,
Parvoz qilgum samoda.

Ushaladi, albatta.
Chaqnab tole yulduzim.
Yurakka orzu solgan,
Yurtini madh etay o'zim.

*Iroda ISMOILOVA,
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi
27-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi*

MUSAFFO OSMONIMIZ

Baxtimizning cheki yo'q,
Musaffo osmonimiz.
Dunyoda hech tengi yo'q,
Vatandir posbonimiz.

Hur Vatanning quchog'i –
Lolazor har yonimiz.
Jondan aziz tuprog'i,
Unga fido jonimiz.



YOSHLAR IJOD SAROVI

Oynavand oq koshona,
Yoshlar ijod saroyi.
Istiqloldan nishona,
Aql charxlar g'aroyibi.

Qatnaydi Botir akam,
Chizar xilma-xil rasm.
Rasmlarin ko'rgan dam,
Keldi rosa havasim.

O'sar barkamol avlod,
Orzulari bir olam.
Kundan kunga yurt obod,
Ta'rifga ojiz qalam.

Mening ham borgim kelar,
Akamlarga ergashib.
Akam-chi, zarda qilar:
– Nima bor senga shoshib?!

Avval sen o'rganib ol,
Yaxshi yozish-chizishni.
Shundan keyin bemalol,
Eplash mumkin bu ishni.

Mundoq o'ylab qaragam,
Uning gapida jon bor.
Akamday bo'lay, desam,
Yaxshi o'qishim darkor.

Avval bo'lay sal katta,
Baholarim «besh» bo'lar.
Harakatim, albatta,
Orzumga esh bo'lar.

*Fayzi SHOHISMOIL,
«Mehnat shuhrati»
ordeni sohibi*



Zarina oyisining hay-haylashiga qaramay, ikkita muzqaymoqni shosha-pisha yeb oldi. «Ana endi tomog'ing og'riydi, nega gapga kirmaysan?» dedi Aziza opa kuyinib. Buning ustiga, uylariga kelgan mehmonlar bir talay shirinlik olib kelishibdi. Qizcha konfet-u shokoladlardan ham anchasini paqqos tushirgach, tishlarini ham yuvmasdan uxlashga yotdi...

Yuziga tushgan yorug'likdan uyg'onib ketgan Zarina avvaliga nima bo'layotganini tushunmadi. «Oyi, oyijon», deb baqirdi u. Biroq, ovozi o'ziga arang eshitildi. Shu payt yonida mitti jonzoqlarning g'imirlab yurganini ko'rdi-yu, jon holatda qichqirib yubordi. Lekin mittilar uning qo'llarini bog'lab, allaqayerga olib keta boshlashdi. Zarina yana onasini chaqirmoqchi bo'ldi, biroq og'ziga solib qo'yilgan kattagina muzqaymoq bo'lagi bunga imkon bermadi. U qo'rquvdan ko'zlarini chirt yumib oldi.

Yuziga urilgan muzday havodan cho'chib ketgan Zarina tezda ko'zlarini ochdi. «Muzqaymoq» deb yozilgan temir quti ustida o'tirgan bobo unga qattiq tikilib turardi. Uning qalpog'i yupqa shokoladdan yasalgan bo'lib, ko'zlari yashil marmeladni eslatardi. Qo'lida esa muzqaymoq cho'piga o'xshash hassa tutib olgandi.

– Shumi? – dedi u qoshlarini chimirib.

– Shu, – deyishdi Zarinani «asir» olgan



MUZQAYMOQ

(Hikoya)

muzqaymoqlar. Bu payt qizchanning og'zidagi muzqaymoq erib bo'lgandi, biroq tili muzlab qolganidan gapirolmadi.

– Oyi, oyi, – dedi u ingragandek.

– Sen muzqaymoqlar qoidasini buzding, qolaversa, bu ishga shirinliklarni ham sherik qilding, chora

ko'rmasak bo'lmaydi, – dedi chol bobosinikidek oppoq qoshlarini o'ynatgancha.

Qizcha hayron-u lol bo'lib qoldi. Nahotki, muzqaymoqlarda ham tartib-qoida bo'lsa? Axir u ko'p kitob o'qigan, ertaklar eshitgan, ammo so'zlaydigan muzqaymoq haqida esa...

– Nima qilay, muzqaymoqni judayam yaxshi ko'rsam?..

– Yaxshi ko'raman, deb turli yeguliklarni aralashtirib yeyish durust emas. Sen, albatta, jazo olishing kerak. Bu ishni biz sening foydang uchun qilyapmiz. Qolaversa, bu boshqa bolalar uchun ham saboq bo'lsin! – dedi bobo baland ovozd.

...Zarina uyg'onganida karavoti yonida shifokor amaki, oyisi o'tirardi. Shifokordan qo'rqadigan qizaloq, bu safar negadir xursand bo'lib ketdi.

– Oyijon, – dedi Aziza opani quchoqlab. Ammo ovozi chiqmadi.

– Ozigina dam ol, qizalog'im, muzqaymog'-u shirinliklarni ko'p yeganing uchun tomog'ing og'rib qolibdi, sal issig'ing ham bor, – dedi oyisi.

Qizcha tundagi voqeani esladi va «Meni kechiring, muzqaymoq bobo, endi qoidalarga amal qilaman», dedi o'ziga o'zi shivirlab.

Uch-to'rt kun o'tgach, Zarina ancha tuzalib qoldi va bundan keyin har ishni me'yorida qiladigan bo'ldi.

Saida IBODINOVA

SPORTCHI QIZLARGA ATALGAN SOVG'A

Yaqinda Andijon Olimpiya zaxiralari sport kollejida 1 ming 500 nafar qizga yurtimizda ishlab chiqarilgan sport kiyimlari Prezident sovg'asi sifatida topshirildi. Tadbirda viloyat faollari, ota-onalar, o'quvchi-yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturlar hayotga tatbiq etildi. Bu ezgu ishlar, eng avvalo, mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarni o'z iqtidor va qobiliyatlarini to'la namoyon etishi uchun zamin yaratdi. Ayniqsa, yurtimizda yosh avlod, jumladan, qizlarni sportga keng jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildiki, buning samarasi o'laroq, o'zbek sporti mustaqillik yillarida ulkan marralarni zabt etdi.

– O'quv maskanimizda qizlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, – deydi Andijon Olimpiya zaxiralari sport kollejining direktor o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Mirzo Ulug'bek Ubaydullayev. – Quvonarlisi, viloyatimiz xotin-qizlarining respublika va xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarida kollejimiz o'quvchilarining ham munosib hissasi bor.



2013-yilda 4 ming 269 nafar andijonlik xotin-qizlar mamlakat va xalqaro miqyosda o'tkazilgan musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, 533 ta oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdi.

– Mana bir necha yildirki, sportning qilichbozlik turi bilan shug'ullanaman, – deydi Andijon Olimpiya zaxiralari sport kollejining 3-bosqich o'quvchisi Gulmira Bekir. – Shu kunga qadar O'zbekiston chempionati hamda Fransiyaning mamlakatimizdagi elchisi kubogi uchun o'tkazilgan musobaqada sovrindor bo'lib, ustozlarim va otanamning ishonchini oqladim. Kelajakda xalqaro musobaqalarda ham ona Vatanim sharafini munosib himoya qilmoqchiman.

Bu kabi tadbirlar viloyatning barcha tuman va shaharlarida yuqori saviyada bo'lib o'tmoqda. «Sog'lom bola yili»da viloyatdagi 33 ming nafar qizga sport kiyimlari berish rejalashtirilgan.

S. TURSINOV

IQTIDORLILAR BELLASHUVI

Poytaxtimizdagi 10-ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning yakkakurash turlari bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida o'tkazilgan musobaqadan ko'zlangan asosiy maqsad – iqtidorli yosh sportchilarni saralash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va xalqaro maydondagi musobaqalarga tayyorlashdan iborat. Unda 120 nafar yosh sportchi o'zbek jang san'ati, turon yakkakurashi, karate, ushu va kikkboxing kabi sport turlari bo'yicha bahslashdi.

Bellashuvlar yakunida Mirsaid Sodiqov, Mirhaydar Sodiqov, Timur Sokolov, Sirojiddin Parpiyev, Behzod Abdusalomov, Jamshid Yo'ldoshev, Abduqodir Islomov, Sardor Suyunov, Abduboriy Saidazimov kabi yosh sportchilarning mahorati hakamlar tomonidan yuqori baholandi.



G'OLIB MURABBIYLAR

Yaqinda maktabimizda «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab velopoyga musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu gal o'quvchilar emas, balki ustoz-murabbiylar o'zaro bellashishdi.

Ayollar o'rtasidagi bahslarda 1-o'rinni mehnat fani murabbiysi Dilnoza Rasulova, 2-o'rinni Zarifa Jumanazarova qo'lga kiritdi. Erkaklar o'rtasidagi bellashuvlarda esa 1- va 2-o'rinlarni tarix va huquq fani o'qituvchilari – Abbas Jabborov hamda Nizomiddin Nosirov egallashdi.

Endilikda ular musobaqaning tuman bosqichida ishtirok etishadi.

Shohsanam SAYDULLAYEVA, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

KUHLILAR ANIQLANDI

Buxoroda badminton bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan mamlakat chempionati yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Badminton federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan musobaqada Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridan 120 nafar yigit-qiz kuch sinashdi.

Turli yosh toifasidagi yakkalik bahslarida buxorolik Mirjon Rahimov, Amrulla Baxshullayev, Abdurasul Xo'jayev, qizlar o'rtasida poytaxt vakilasi Viktoriya Rudakova, Andijon viloyati sharafini himoya qilgan Dilrabo Ahmedova va Mohinur G'ofurova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Juftliklar bahsida Amrulla Baxshullayev va Farrux Jo'rayev, qizlar juftligida Valeriya Mushtakova va Xursandoy Komilova, aralash juftliklarda esa Husniddin Orzuboyev va Farangiz Sultonova oltin medalga sazovor bo'ldi.

Umumjamao hisobida buxoroliklar birinchi o'rinni egalladi. Andijon viloyati ikkinchi, Toshkent shahri vakillari esa uchinchi bo'lishdi.

Shoh MUHAMMAD



«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar



SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

Aziz o'quvchilar! Yozgi ta'tilga ham sanoqli kunlar qoldi. Ungacha kitob javoningizni yangi kitoblarni to'ldirsangiz, ta'tilda ularni miriqib mutolaa qilasiz.

MITTI HANGOMALAR



Adabiyot darsida hayoti va ijodi bilan tanishgan yozuvchilarningiz haqida mitti hangomalar va voqeyi hikoyalarni o'qishni istaysizmi? Taniqli yozuvchi Nosir Fozilovning «Munavvar lahzalar» kitobida G'afur G'ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Oybek kabi zabardast shoir va yozuvchilarning do'stona hazil-mutoyibalarini o'qib, zavqlanasiz.

TARIXNI O'RGANAMIZ

Muallif Iso Jabborov qalamiga mansub «Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani» kitobini mutolaa qilib, ona Vatanimiz tarixiga oid tarixiy-etnografik lavhalar bilan tanishasiz. Mazkur asarda muqaddas «Avesto» kitobidan tortib, ilk O'rta asr davri obidalari, mashhur siymolar, jasur sarkarda va shahzodalar taqdiri haqida hikoya qilinadi.



YAQIN O'TMISH ERTAKLARI



Sevimli adibimiz Ilhom Zoyir qalamiga mansub «Holva yemagan bola» qissasini mutolaa qilsangiz, tengdoshlaringizdan birining boshidan kechirgan ajoyib-u g'aroyib voqealarning guvohiga aylanasiz. Kitobni o'qish davomida xuddi bir do'stingiz bilan suhbatlasha turib, uning hayoti, oilasi, maktabdagi shoxliklari haqida hikoya eshitganday bo'lasiz. Muallifning yozishicha, ushbu qissada yaqin o'tmish eertaklari jamlangan bo'lib, kitobning nima uchun shunday deb nomlanganini qissani o'qib chiqqach, bilib olasiz.

DEHQON VA UNING O'G'LI

Qadimda bir dehqon va uning o'g'li bo'lgan ekan. Ular dalada mehnat qilib, halol rizq bilan hayot kechirisharkan.

Bir kuni dehqon og'ir kasal bo'lib, to'shakka mixlanib qolibdi. O'g'li otasining betobligini bildirmasdan kun bo'yi dalada mehnat qilibdi. Kunlar bir-birini quvalashib o'taveribdi. Dehqonning kasalini davolagani ko'p tabiblar kelib ketibdi. Afsuski, qilingan davo choralarning hech biri uning dardini yengillatmabdi. Bir kuni navbatdagi tabib bolaning otasini ko'zdan kechirarkan, bemorning dardiga baland tog'lar cho'qqisida o'sadigan noyob gulning ildizi shifo bo'lishini aytibdi. O'g'li ertasi kuni tong saharlab, ulkan tog'ni ko'zlab yo'lga tushibdi. Ming mashaqqat bilan tabib ayrgan gulning ildizini olib kelib, qaynatib, suvini otasiga



ichiribdi. Tez kunda dehqonning yuziga qizil yugurib, dardiga shifo topa boshlabdi.

O'g'li bu orada daladagi hosilni yig'ishtirishga kirishibdi. O'ziga biroz kelib olgan dehqon dalaga chiqib hayron qolibdi. O'g'li uygan xirmon tog'-tog' bo'lib ketgan emish.

Dehqon mehribon va mehnatkash o'g'li borligidan bir umr faxrlanib o'tgan ekan.

Ulug'bek NORMURODOV, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

MUHOFAZADAGI BAMBUK AYIG'I



Aziz bolajonlar, panda ayig'ini bilsangiz kerak-a?! Barakalla, topdingiz. Siz uni «Kungfu panda» multfilmida ko'rgansiz. Bu jonivorni bambuk ayig'i deb ham atashadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, panda Janubiy Amerikada yashovchi ko'zoynakli ayiqning yaqin qarindoshi bo'lib, hozirgi kunda Janubiy Xitoy tog'larida hayot kechiradi va mamlakatning milliy ramzlaridan biri sanaladi.

Ushbu jonivorning bo'yi bir yarim metr, og'irligi esa bir yuz oltmish kilogrammgacha yetadi. Panjalari keng va baquvvat, timoqlari o'tkir bo'lib, barmoqlarining soni oltita. Yana bir qiziq ma'lumot: boshqa ayiqlardan farqli ravishda pandaning o'n santimetr gacha uzunlikdagi dumi ham bo'ladi.

Pandaning bambuk ayig'i deb atalishiga sabab, bu jonivor yirtqich hisoblansa-da, asosan bambuk ildizi, novdalar va boshqa o'simliklar bilan oziqlanadi.

Ona panda ikki yilda bir marta bitta, ba'zan ikkita bolalaydi. Eng qizig'i, dunyoga kelgan ayiqchalar dastlab bir yuz o'ttiz gramm og'irlikda bo'ladi. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda bu jonivorning soni ikki mingga ham yetmaydi. Shu bois, ular xalqaro yovvoyi tabiat fondining ramzi etib belgilangan.

ZUBAYDA tayyorladi

2	Meva	Ism
		Buvim
3	Barcha bor	
1	Inkor etish	

SKANVORD



Skanvord kataklari savollardan tashqari, raqamlar ham berilgan. Qaysi raqamdagi tasvir nomlari kataklarga mos kelsa, yozish kerak bo'ladi.

Marhamat, skanvordni tugal yechishga urinib ko'ring.

Anvar MIRAZODA, Toshkent viloyati

12-may 2014.

Muassislari:

O'zbekiston Matbuoti va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir hay'ati:
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMI'da chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 53098
Buyurtma N: J 9873